



## The Synthesis of Roman and Germanic Elements: Their Influence on the Formation of English Landed Society

Bakhtiyor RIZAYAEV<sup>1</sup>, Sarvinoz ISLOMOVA<sup>2</sup>

Bukhara State University

### ARTICLE INFO

**Article history:**

Received December 2024

Received in revised form

15 December 2024

Accepted 20 January 2025

Available online

25 February 2025

**Keywords:**

Britain,  
England,  
Briton,  
Anglo-Saxon,  
Ten,  
Creole,  
Earl,  
Witenagemot,  
Earl,  
Sheriff,  
Hivist,  
Haga.

### ABSTRACT

This article examines the formation of a new system based on land ownership, which emerged from the synthesis of the declining Roman slave system and the tribal structure of Germanic peoples. It explores the impact of these changes on English society, highlighting its distinctive features and social stratification. The topic is illuminated using both literature published in our country dedicated to medieval history and other foreign language sources.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss1-pp208-213>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Rim va german elementlari sintezi: Angliya yer egaligi jamiyati shakllanishiga ta'siri

### ANNOTATSIYA

**Kalit so'zlar:**

Britaniya,  
Angliya,  
britt,  
angl-saks,  
ten,  
kryol,  
erl,  
vitenagemot,  
graf,  
sherif,  
xivist,  
haga.

Ushbu maqolada Rim quldorlik tuzumi bilan germanlarning yemirilish bosqichida bo'lgan urug'-qabilaviy tuzumining o'zaro sintezi natijasida vujudga kelgan, yer egaligiga asoslangan yangi tuzum tashkil topishi, o'zgarishlarning Angliya jamiyatiga ta'siri, o'ziga xos xususiyatlari hamda ijtimoiy taqabaqalar ko'rsatib beriladi. Mamlakatimizda o'rta asrlar tarixiga bag'ishlab nashr etilgan adabiyotlar bilan bir qatorda, xorijiy tildagi boshqa manbalardan foydalangan holda muammo yoritiladi.

<sup>1</sup> PhD, Associate Professor, Bukhara State University.

<sup>2</sup> Student, Bukhara State University.

# Синтез римских и германских элементов: влияние на формирование землевладельческого общества Англии

## АННОТАЦИЯ

### Ключевые слова:

Британия,  
Англия,  
бритт,  
англосаксонский,  
тен,  
креольский,  
граф,  
витенагемот,  
граф,  
шериф,  
хивист,  
хага.

В данной статье рассматривается формирование нового строя, основанного на землевладении, возникшего в результате взаимодействия римского рабовладельческого строя и разлагающегося родоплеменного строя германцев. Освещается влияние этих изменений на английское общество, его особенности и социальная стратификация. Проблема раскрывается не только с использованием литературы по истории средневековья, изданной в нашей стране, но и с привлечением других иноязычных источников.

## KIRISH

Ilk o'rtta asrlar haqlarning buyuk ko'chishlari nomi bilan tarixga muhirlangan, Yevropa haqlari taqdirida muhim ahamiyatga ega bo'lgan voqelik bilan boshlanadi. Ayni shu davrda qit'a aholisining yoppasiga harakatga kelishi, ko'p asr amalda bo'lgan quldorlik tuzumiga zarba beradi. Sobiq Rim imperiyasi tarkibiga kirgan hududlarda yangi varvar qirolliklari tashkil topdi. Ularning Rim jamiyati bilan assimlyasiya jarayonida quldorlik tuzumi tartiblari dars ketdi, feodal tuzum o'rnatish uchun muhim shart – sharoitlar yuzaga keldi. Keyinchalik bu turli mintaqalalarida turlicha, lekin mazmun va mohiyati yagona bo'lgan oqibat – feodal qirollikning tashkil topishi bilan yakunlandi. Bu orada Rim ta'siri nisbatan kam bo'lgan Britaniya yarim orolida voqelikning boshqa mintaqalarga nisbatan ishdati bilan kechishi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu jadallikni anglash uchun er egaligi tartibini qaror topishi, rivojlanishi va natijalariga nazar tashlashni taqazo etadi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mazkur maqolada Angliya yer egaligi jarayoni tarixiylik metodologiyasi mezonlari asosida, xronologik tartibda tahlil etiladi. Asosan xorij (Angliya), Sobiq ittifoq, Respublikada o'rtta asr Yevropasi tarixiga bag'ishlab nashr etigan adabiyotlar tashkil etadi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Rim legionerlari Britaniyani tark etgach, bu yerdagi mahalliy aholi pikt, skott, britt va keltlar o'zaro urushlarga zo'r berdi va germanlarning yut, angl, saks va frizlardan qabilalaridan yordam so'rab murojaat qildi. Bu qabilalar ilk bor Britaniyada 449-yil paydo bo'lgandi.[3, – B. 80] Ularning harakatlaridan tub erlik aholi uchun yordam emas aksincha, orolni talash maqsadida kelganliklarini anglash mumkin edi. Darhaqiqat, VIII–IX asrlarda german qabilalari tomonidan orolda 7 ta: Kentukiya (Kent) – Jutlar tomonidan asos solingan, Sasseks (Sussex) – Janubiy saksonlar qirolligi, Esseks (Essex) – Sharqiy saksonlar qirolligi, Vestseksiya (Wessex) – G'arbiy saksonlar qirolligi, Angliya sharqi (East Anglia) – Sharqiy angllar tomonidan asoslangan, Mersiya (Mercia) – Angllar tomonidan tashkil qilingan, Nortumbriya (Northumbria) – Bernitsiya va Deira birlashuvidan tashkil topgan, Angllar qirolligi kabilarga asos solindi.[6, – B. 76] Istelochilar Britaniyada mavjud Rim quldorlik tuzumi bilan, mahalliy urf-odatlariga asoslangan urug'-qabilaviy tuzum muvoffiqligiga putur etkazadi.

Sobiq ittifoq va mustaqillik yillari yurtimizda o'рта asr Yeropasi tarixiga bag'ishlab nashr etilgan adabiyotlarda german qabilalarining oroldagi bo'sh yerlarga joylashganliklari qayd etiladi. Biroq, xorij tadqiqotlarida anglosakslar istilolari davomida qo'lga kiritgan barcha yer-mulklari mahalliy aholiga qarashli bo'lgani hikoya qilinadi. Chunonchi, istilochilar 20 ta xonadongacha bo'lgan birlashma shaklida asosan, qishloqlarga joylashganlar. [1, – B. 60] Qishloq jamosi bilan germanlar istiqomat qilgan boshpanalarini odatda bir devor ajratib turardi. Ular mahalliy aholi hovlisidan yetishtirilgan mahsulotlarni, zarur asbob-uskuna va jihozlarini saqlash uchun joy sifatida foydalanish huquqiga ega bo'lganlar. Anglosakslar dehqonchilik tajribalarini o'zlari bilan keltirgan g'ildirakli plugga qo'shilgan qo'shlar yordamida, daryo vohalarida egallangan jamoa yerlarida davom ettiradilar.[2, – B. 10] Aholi soni oshib borishi bilan, avval ishlatilmagan qo'riqlar, Janubiy Angliya keng maydonlarini egallagan o'rmonlardan daraxtlani tozalanib, ekinzorlarga aylantirila boshladi.

“Anglosaks Mulki” tarkibiga mahalliy aholiga qarashli bo'lgan (veala deb atalgan), barcha yer-mulklari, chorvasi kirgan. [4, – B. 75] Bir necha oilalar birlashmasidan tashkil topgan jamoa katta xonadonlarda istiqomat qilgan. Xonadon atrofi devor bilan o'ralgan, jamoaga uning tarkibidan yetishib chiqqan, jismonan baquvvat hamda botir oqsoqol yetakchilik qilgan. U jamoa ekinzorlari, o'tloq va yaylovlari chegarasini buzganlarni jazolash, qatl qilish, qullar o'rtasida tartibni saqlash kabi bir talay vazifalarni bajargan.

Anglo-sakslar dastlab, darhaqiqat orolni bo'sh yerlariga joylashib, yer-mulkka ega bo'lishi tub yerli aholi bilan kelib chiqishi mumkin bo'lgan muammolarini oldi olgan. Ammo, keyinchalik ikki o'rtada nizo kelib chiqib, mahalliy aholi ta'qib qilingan.

O'рта asrlar haqiqatlari G'arbiy Yevropada feodal tuzum elementlari umumiylik kasb etganligidan guvohlik beradi. Misol, uchun “Sali haqiqati” – da keltirilgan dalillar, anglo-saks haqiqatlarida ham uchraydi. Franklar va anglo – sakslarda erkin jamoa a'zosi bir xil kyorllar deb yuritilgan. Ular gayda – yirik ekinzorlarga ega bo'lganlar. Britaniyaning ba'zi qirolliklarida har bir kerl oilasiga tegishli katta chek yerning miqdori 120 akr yoki 50 gektarga teng bo'lgan. [6, – B. 81]

Manbalardagi jamiyat tabaqalari xuni uchun belgilangan to'lovlar beixtiyor kishi e'tiborni tortadi. Chunonchi, kerlning velgeldi – xuni 200 shilling bo'lsa, zodagon – erlning velgeldi esa dastlab, 400 shilling, keyinchalik 600–1200 shillingga yetadi. Dalillar jamiyatni tabaqalarga ajralgani, bunda mulkdorlar mavqeyini yuqoriligidan ko'rsatadi.[7, – B. 60]

“Haqiqatlar” da kyorllardan tashqari yana letlar va uillar (Ilova qaralsin) ham tilga olinadi. Letlarning Britaniya mahalliy aholisidan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. Ular o'z holatiga ko'ra frank litlarini eslatib, yarim erkin edi. Letlar ma'lum majburiyat evaziga erllarning yerida ishlab berar, vergeldi esa 80 shilling atrofida bo'lgan. [8, – B. 20] Zodagon angl-sakslar, erllarning qullari ham bo'lib, bu qullarning bir qismi xo'jalikda xizmat qiladigan qullar bo'lib, ular obrokchi qullar hisoblangan va dehqonchilik bilan shug'ullangan.

Ilk o'рта asrlarda Angliyada qul mehnatidan ommaviy foydalanilishi, erkin jamoachi va yarim erkin dehqonlar toifasi mavjudligi feodal tartiblarni qaror topishini mo'tadillashtirdi.

Angl-saks jamiyatida jamoa va mahalliy boshqaruv organi qishloq bo'lib, u tun deb atalgan. Tun qishloq jamoasi azolaridan tarkib topgan, yer va suvga jamoaviy egalik qilingan. Qishloq yig'ini-galimot chaqirilib, yig'in oqsoqol tomonidan boshqarilgan. [3, – B. 77] Qirolning hududlardagi rasmiy vakolatga ega vakili sherif (ikki so'zning qo'shilishida hosil bo'lgan: gerefa (oqsoqol) va shir (anglo sakscha graf degani) faoliyatini

galimot bilan maslahatlashib amalga oshirgan. Bu kengashda mahalliy zodagonlar hal qiluvchi ta'sirga ega edi. Shu tarzda jamiyatda alohida mavqeyga ega bo'lgan, zodagon shakllandi. Imtiyozli tabaqaning yuqori organi qirol huzurida tashkil etilgan vitenagemot zodagonlar kengashi bo'ladi. [9, – B. 60] Biroq, kengash qirol vakolatlarini cheklanishiga olib keladi. Qonunlar tasdiqlash hamda oliy sud vakolatlari ayni shu kengashga tegishli edi. Hukmdorni saylash, lavozimidan mahrum etish kengash qarori bilan amalga oshirilgan. Qirol qarorlari kengash tasdig'idan o'tmasdan turib, amaliyotgan joriy etilmagan.

Anglo-sakslarda uzoq yillar yerning jamoa egaligi turlari saqlanib qoladi. Yirik oilalar yeri – gayda va folklend, deb nomlangan. Yerdan foydalangan jamoa a'zolari – kerlning unga egalik huquqi bo'lmagan. Kerlning oilasi xo'jalik yuritgan yeri – gayda soliq olish birligi edi. Hukmdor o'z drujinalari bilan mamlakat bo'ylab safarga chiqqanida ushbu soliq hisobidan yashagan.

Orolda feodal tartiblarning mo'tadil kechishi VII–VIII asrlarda yer egaligi munosabatlari yuksalmagani, dehqonlarning qaramlikka tortilmagani, hokimiyatga davlat xizmatini-tenlar, cherkov xizmatini- kerllarga bajartirishga majbur etadi. [3, – B. 78] Qirollar VII asrdan ayrim hududlardan soliq yig'ish huquqini cherkovga bera boshlaydi. Natijada, kerllar o'z xo'jaligida yetishtirilgan mahsulotlarning bir qismini hukmdordan in'om yorlig'ini olgan ten yoki cherkov monastirga to'lay boshlaydi. Bundan tashqari, qirol ularga immunitet huquqini ham taqdim etadi. Kerllar qirol foydasiga harbiy xizmat o'tashlari, mudofaa inshootlari, ko'priklar qurishda, yo'llarni ta'mirlashda qatnashishlari lozim edi.

Qirolning boklend in'om etishi erkin dehqonlar yerlari hisobiga yirik yer egaligini yuksaltiradi. Boklend (anglosaks.: bocland; ingl. bookland) VII–XI asrlarda Anglo-sakson Britaniyasida yer egaligining maxsus turi bo'lib, unda muayyan hudud qirol tomonidan yerlarni davlat majburiyatlaridan ozod qilishni ta'minlaydigan maxsus yorliq asosida yirik zodagonlar yoki cherkov tashkilotlariga berilgan. [6, – B. 80] Boklend Britaniyada feodal yer egaligining tarixiy jihatdan ma'lum bo'lgan birinchi turi edi.

Yer egaligining bir turi sifatida boklend, folklendga qarshi chiqdi, unda qirol foydasiga majburiyatlar to'liq saqlanib qoldi. Boklendning yuridik maqomi qirolning yorlig'i bo'lib, u boklend egasini davlat majburiyatlaridan ozod qildi va bu hududni odatiy huquq doirasidan chiqdi. [20, – B. 5] Boklend yorlig'larining keng tarqalishi bilan, VII asr ikkinchi yarmi va IX asrda kerllar xonavayron bo'lishini tezlashtirdi.

Xulosa qilib aytganda, yirik oila mulklari ajralib, kambag'allashgan a'zolar o'zlariga homiylik – gladfordlar topishga majbur bo'ladilar. Oqibatda, kambag'allashayotgan va zulm o'tkazayotgan aholi kuchli zodagonlar, cherkov hukmiga o'tadi. Gladfordat o'z hududlari aholisi uchun mas'uliyatni, soliq va majburiyatlarni bajarishni nazorat qilish, barcha mulksizlar va uysizlarga o'zlariga homiylik topishni majburiy etib qo'yadi.

#### GLOSSARIY

1. **Folklend** – o'rta asrlar Yevropasida, ayniqsa Angliyada, **“qishloq hududi”** yoki kichik jamoani ifodalash uchun. Bu erda "folk" so'zi **“xalq”** yoki **jamoa** ma'nosini bildiradi, "land" esa **yer** yoki **hudud** degan ma'noni ifodalaydi.

2. **Gayda** – Angliya va Skandinaviyadagi jamoa yer egaligi. Unga kichik oilalar yeri kirgan.

3. **Kerl** – o'rta asrlar Yevropasida **erkin erkak** yoki mustaqil **qishloq mehnatkash shaxsni** anglatadi.

4. **Erl** – o‘zining yerlarida yashagan aholi ustidan hokimiyatga ega bo‘lib, **solliqlarni yig‘ish** va **yengil hukumat** o‘rnatish kabi mas‘uliyatlarga ega bo‘lgan lavozim

5. **Let** – **qishloq yoki jamoa a‘zosi** sifatida o‘zining shaxsiy yerga egalik qilish yoki **feodal tizim** asosida, yer egalari yoki yuqori darajadagi xodimlar tomonidan boshqariladigan yerlarda ishlagan..

6. **Uil** – inglizchada “yovvoyi”, **feodal yer egalari** yoki **ko‘proq qishloq xo‘jaligida ishlovchi shaxslarni** ifodalash uchun ishlatiladi. Bu atama ijtimoiy tuzilma va yer egaligi tizimida muhim o‘rin tutgan va feodal jamiyatning ayrim a‘zolarini tasvirlashda qo‘llanilgan.

7. **Ten** – Angliyada ilk o‘rta asrlar dehqonlarning qaram bo‘lmaga, hokimiyat yerlarida ishlovchi kishilar.

8. **Gayda** – inglizchada “non beruvchi”, “boquvchi”, keyichalik “lord” atamasi ham shunday paydo bo‘lgan. Angliya dehqonlarga homiylik qiluvchi zodagonlar.

9. **Shilling** – o‘rta asrlarda Angliyada **pul birligi sifatida ishlatila boshlandi. Ilk bor bu atama Angliyada XII asr oxirida Genrix II tomonidan muomalaga kiritildi. 1 shilling=20 penni.**

10. **Boklend** – o‘rta asrlarda Angliya davlatidagi yer egaligi turlaridan biri bo‘lib unda ko‘pincha mulk yuridik tizimiga bog‘liq huquqiy nazoratni o‘z ichiga oladi.

11. **Yutlar** – ingliz tilida “jutes”, kelib chiqiqshi Germaniya va Skandinavuya yarim orolining janubida yashagan. Ularning aniq manzillari hozirgi Daniya va Germaniyaning shimoliy qismlariga to‘g‘ri keladi.

12. **Frizlar** – german xalqi sifatida, asosan shimoliy Germaniya va Gollandiya (hozirgi Niderlandiya) hududlarida yashagan xalq. Ulat Friziya deb atalgan hududda istiqomat qilgani bois xalqning nomi kelib chiqqan.

13. **Veala** – ilk o‘rta asrlarga oid bu atama , Angliyada “villa” yoki “vele” (ingliz tilida) deb nomlangan bo‘lib, ijtimoiy qatlamni anglatadi.

#### **FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. **Stenton, F. M.** *Anglo-Saxon England*. (Oxford University Press, 1971) – 345 p.
2. From ‘A History of the British Nation’ by AD Innes, 1912. TC & EC Jack – 280 p.
3. T. O‘. Salimov Jahon tarixi (Yevropa mamlakatlari V – XV asrlarda Universitet Toshkent – 2014. – 296 b
4. Asser; *Life of King Alfred*; trans Cook, Albert, S; Ginn and Co, Boston, 1905. – 403 p.
5. Burton, Janet; *Monastic and Religious Orders in England 1000 – 1300*; Cambridge 1994. – 266 p.
6. В.Ф.емёнов. Ўрта асрлар тарихи. -Тошкент: Ўқитувчи, 1978. -С. 645.
7. Bede; *Bede’s Ecclesiastical History of England*; trans Sellar A. M.; George Bell and Son, 1907. – 140 p
8. Sh. Ergashev “Jahon tarixi, yangi davr 1- qism” “O‘zbekiston” Toshkent – 2013. – 514 b.
9. Vinogradoff, Sir Paul; *The Growth of the Manor*; George Allen and Unwin; London: 1920. -448 p
10. Pestell, Tim; *Landscapes of Monastic Foundation, The Establishment of Religious Houses in East Anglia c. 650 – 1200*; The Boydell Press, 2004. – 215 p.
11. Tait, James; *The Medieval English Borough*; Manchester University Press; Manchester, 1936. -180 p.
12. Goodwyn, Charles Wycliffe; *The Legend of Saint Guthlac*; John Russel Smith, London, 1848. – 150 p.



13. Lemanski, S. Jay; *The Rectitudines Singularum Personarum: Anglo-Saxon Landscapes In Transition; A Thesis Presented to The Graduate Faculty of the University of Akron; August, 2005.* – 621 p.
14. Maitland F. W.; *Domesday Book and Beyond, Three Essays in the Early History of England; Cambridge University Press, 1907.* – 128 p.
15. Martin, G and Williams, A (translators); *Domesday Book, A Complete Translation; Penguin Classics, 2004.* – 220 p.
16. Mayr-Harding, Henry; *The Coming of Christianity to Anglo-Saxon England; B. T. Batsford, London 1972.* -349 p
17. Sawyer, P.H; *Anglo-Saxon Charters: an Annotated List and Bibliography. London, 1968.* -98 p
18. Stenton, Frank; *Anglo-Saxon England; Oxford University Press; Oxford; 1971.* -346 p
19. Stenton, Frank; *The thriving of the Anglo-Saxon Ceorl, in Preparatory to Anglo-Saxon England: Being the collected papers of F. M. Stenton.* – 185 p
20. Vinogradoff, Sir Paul; *The Growth of the Manor; George Allen and Unwin; London: 1920.* – 405 p
21. Виноградов П. Г. *Исследования по социальной истории Англии в средние века.* – Спб., 1887. -238 с
22. Гуревич А. Я. *Мелкие вотчинники в Англии раннего средневековья / Известия АН СССР, серия истории и философии.* – Т. VII. – №6. – М., 1951. – 405 с
23. Соколова М. Н. *Возникновение феодального землевладения и класса феодалов в Англии в VII – X вв.* – СВ. – вып. XII. – М., 1958. -289 с
24. Соколова М. Н. *Поместье в Англии до нормандского завоевания.* – СВ. – вып. 31 – 32. – М., 1969 – 1971. -220 с.